

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:41 (67102)
2016-yil
10-oktyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!



Yangi rukn:

TAHRIRIYATDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ

Aziz o'quvchilar, gazetamizda yangi «Tahririyatdan qo'ng'iroq qilyapmiz» rukni tashkil qilindi. Unda xalq ta'limi mutasaddi rahbarlari, fidoyi ustozlar, iqtidorli o'quvchilar bilan telefon orqali bog'lanib, gazetamiz haqidagi fikr-mulohazalarini bilishga bel bog'ladik.

Ilk suhbatdoshimiz Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Azamat UMAROV bo'ldi:

SAMARQANDLIK O'QUVCHILAR HAMISHA PESHQADAMLAR SAFIDA

«Tong yulduzi» gazetasining mazmun-mohiyati tobora kengayib bormoqda. Viloyat, tumanlarda ro'y berayotgan yangiliklar, o'zgarishlar haqidagi maqolalar, maktab hayotiga oid qator tadbirlar, o'quvchilarning ijod namunalari, qiziqarli ma'lumotlarning ko'pligi, ayniqsa, yosh ijodkorlarga keng yo'l ochib berilgani o'quvchilarning «Tong yulduzi» gazetasiga qiziqishlarini orttirmoqda. Bu yilgi obuna mavsumida ham samarqandlik o'quvchilar birinchilikni qo'ldan bermaydilar.

Ha, samarqandlik o'quvchilar hamisha, har sohada peshqadamlar safida bo'lgani rost. O'ylaymizki, bu boradagi xayrli ishlarimiz 2017-yilda ham davom etadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi



Orzulari bir lam (3-bet)

Nashr
ko'rsatkichi -

198

gazetasiga 2017-yil uchun obuna mavsumi boshlandi!

Siz maktab kutubxonasi yoki uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida obuna bo'lishingiz mumkin.

«TONG YULDUZI»

Aziz o'quvchilar!

Bizga maktub yo'llabsiz...

YURTIMNING KELAJIMAN

Mustaqillik insonlarga berilgan oliy baxtdir. Bugungi kunda O'zbekistonimiz yanada chiroy ochib, gullab yashnamoqda.

Yurtimizda ilm olish, kasb-hunar egallash, sport bilan shug'ullanishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Biz bundan behad xursandmiz. Har kuni sevimli maktabimiz quchog'ida mehribon ustozlarimizdan saboq olmoqdamiz. Turli ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinnlarni olganimizda, ustozlar yuzidagi tabassum, nigohlaridagi quvonchni ko'rib, sevinamiz.

Men hozirda o'quvchiman. Kelajakda, albatta, egallagan bilimim, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda orzularimni amalga oshiraman. Yetuk mutaxassis bo'lib, Vatanimga sodiq farzand bo'lishga chin dildan harakat qilaman.

Mustaqil Vatanim, hur O'zbekistonim! Sening bag'ringda tug'ilib-o'sdim, kamol topdim. Mana endi koringga yarasam, deymen.

Sabiha HABIBULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

YAXSHILAR QURSHOVIDA

Inson dunyoga kelibdiki, unga birinchi bo'lib ota-onasi ustozlik qiladi. Sekin-asta ulg'ayib, bolalar bog'chasiga, so'ng maktabga chiqadi.

Ta'lim maskanida yozish, o'qish, fikrlashni, yaxshi baho olish uchun o'z ustilarida tinimsiz ishlashni o'rganadilar. Ustozlar esa bolalarni ham jismonan, ham aqlan shakllanishlari uchun o'z mehnatlarini ayamaydilar.

Mening birinchi ustozim Mavluda opa Dadasheva. «Ustoz otangdek ulug'», deydi dono xalqimiz. Shunday ekan, ularning saboqlarini doim yodda tutishimiz kerak.

Bizga ta'lim bilan birga tarbiya ham berayotgan barcha o'qituvchi-murabbiylarimizga sog'lik, oilaviy xotirjamlik tilaymiz. Doimo yuzlaridan kulgu, xonadonlaridan fayz-u baraka arimasin. Hamisha shogirdlari e'zozida, do'stlar davrasida, yaxshilar qurshovida bo'lishsin!

Zulfiya QOBILOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ENG OBOD TA'LIM MUASSASASIning bugungi kundagi yutuqlari

Respublika miqyosida o'tkazilgan «Eng obod ta'lim muassasasi - 2013» tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 21-umumta'lim maktabida ham ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, jonkuyar o'qituvchilar, bilimga chanqoq o'quvchilarning yutuqlari talaygina.



Maktab rahbari – matematika-informatika fani o'qituvchisi Zohidjon Ostinov bu yil Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ta'lim muassasasida 708 nafar o'quvchiga 74 nafar malakali o'qituvchilar ta'lim-tarbiya bermoqda. Tajribali murabbiylar ko'plab to'garaklarni o'quvchilarning qiziqishlariga qarab tashkil etishgan.

«Iste'dod» to'garagiga Shahlo Bozorova rahbarlik qiladi. To'garak a'zolaridan Dildora Hasanova, Munisa Valiulova kabi o'quvchilarning ijod namunalari Respublika nashrlarida chop etilmoqda. Bu qizlar «Yosh kitobxonlar» to'garagining ham faol a'zolari.

Sabina Beknazarova, Marjona Hamidova, Mirzabek Beknazarovlar kutubxonachi Fotima opa Ahmedovadan bo'sh vaqtlarida doimo yangi kitoblarni olib o'qishdan zavq olishadi. Maktab kutubxonasi hamisha o'quvchilar-u o'qituvchilar bilan gavjum: «Yangi-yangi kitoblardan tez-tez olib kelavering», deb Fotima opani shoshirib qo'yishadi.

– Maktabimiz kutubxonasini iloji boricha yangi-yangi kitoblar, gazeta-jurnallar bilan boyitishga harakat qilaman, – deydi biz bilan suhbatda Fotima opa. – «Tong yulduzi» gazetasiga ko'pchilik obuna bo'lishadi, sevib o'qishadi. Ayniqsa, Dilmurod Hamroyev (4-«D»), Ruqiya Rustamova (3-«A»), Shahlo Elmurodova (4-«A»),

Elyor Eshmurodov (3-«B») rahbarligidagi o'quvchilarning faolligini alohida ta'kidlash lozim. O'quvchilarni bilan o'qilgan kitoblarni yuzasidan o'rtiqlashib ham turaman.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi Asliddin Bobonazarovning shogirdi Rustam Zoirov (7-«B» sinf) Namanganda bo'lib o'tgan 2003–2004-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan «O'zbekiston chempionati»da 300 hamda 600 metrlik masofaga yugurish bo'yicha g'olib bo'lib, oltin medalni qo'lga kiritdi va O'zbekiston chempioni degan nomga sazovor bo'ldi.

«Yosh rassomlar» to'garagi a'zolari Gulasal Arslonova (6-«A» sinf), Asadbek Olimov (8-«B» sinf) maktab bo'yicha o'tkazilgan turli rasmlar tanlovlarda g'olib bo'lishyapti.

Alisher Muhiddinov (8-«B» sinf) «Kamalak» yulduzlari ko'rik-tanlovida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha viloyat bosqichida 2-o'rinni egalladi.

Do'stmurod Ochilovdan kimyo fanini chuqur



o'rganayotgan Ilhom Hamidov (9-«A» sinf) «Bilimlar bellashuvi»da viloyat bosqichida 2-o'rinni egalladi.

Shuningdek, «Bilimlar bellashuvi»da 4-sinf o'quvchisi Jasmina To'liqinova matematika fani bo'yicha viloyatda 1-o'rinni egalladi.


Sport bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan maktab o'quvchilaridan Dostonjon Rustamjonov, Parizoda G'ulomova, Rustam Zoirov, Diyorbek Rizayev, Muhammad Sodiqov, E'zozbek Ismoilov, Muxlisa Muydinova «Umid nihollari – 2015» sport musobaqalarida yengil atletika bo'yicha viloyat bosqichida faxrli 3-o'rinni egallashdi.

Maktab o'qituvchilari yangi texnologiyalar asosida noan'anaviy usulda dars o'tishda ilg'or tajribalarini namoyon etmoqdalar. 4-«A» sinf rahbari Shahlo Elmurodovanning matematika, o'qish fanlaridan tashkil etayotgan ochiq darslari viloyatga ommalashtirilayapti. Bunday dars natijalaridan shunday xulosaga kelinyaptiki, har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay izlansa, darsga ijodkorona yondashsa, ta'lim sifati oshishiga erishishi mumkin ekan.

O'z muxbirlarimiz



Ilm koni — ta'lim maskanim



MAKTAB

Maktab bu — aziz dargoh, Bilimlarning konidir. O'qib-izlangan chog'ing, Ezgulik makonidir.

Odob-axloq bobida, Bilib oldim salomni. Shunday qilib maktabim, O'rgatdi ko'p kalomni.

Men uning quchog'ida, Kamol topib, ulg'aydim. Ustozlarning so'zidan, Ibrat olishni bildim.

Nurjona RAHMONBOYEVA, Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 2-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari! Men yaqinda Qashqadaryo viloyatining «Lochin» oromgohidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlarining XV Respublika anjumanida ishtirok etdim. U yerda ko'plab do'stlar orttirdim. O'zim badiiy adabiyotga juda qiziqqan. She'rlar ham mashq qilib turaman. Sizlarga she'rlarimdan birini yo'llayapman. Ma'qul topsangiz, sahifangizda e'lon qilasizlar, degan umiddaman.


Orzulari bir lam

Kompyuter saboqlarini mukamal o'zlashtirayotgan Abdufarrux internet orqali darsda o'tilgan mavzular yuzasidan ma'lumotlar to'playdi. Bu esa unga fanlarni puxta o'zlashtirishda asqotyapti. Izlanuvchan o'quvchi to'plagan materiallari asosida elektron qo'llanma yaratishni rejalashtirgan.

— Kechki ovqatdan so'ng har kuni

oyim bilan birga dars tayyorlaymiz. Oyi-jonim yangi bosmadan chiqqan kitob boriki, sovg'a qiladilar. Javonim kitoblarga to'la. Eng yaxshi ko'rganim — texnikaga oid bolalar ensiklopediyasi. Yaqinda kitobga qarab mashina yasab, oyi-jonimga kutilmagan sovg'a qildim. Ular juda xursand bo'ldilar, — deydi tengdoshingiz.

Abdufarrux sport mashg'ulotlarini ham kanda qilmaydi. O'tgan yili shahar birinchiligida taekvando WTF bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Uning erishayotgan yutuqlarida barcha ustozlari qatori Malika Mirto'rayeva, Ma'mura Abdullayevaning xizmatlari cheksiz. Kelajakda biz unga muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilaymiz.



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

Nozima QUDRAT qizi

Muhayyo Omonova rahbarlik qilayotgan Namangan tumanidagi 18-umumta'lim maktabi hududdagi ilg'or ta'lim maskanlaridan biri sanaladi.

OQBULOQNING OYDIN TONGLARI

— Maktabimizda ko'plab fan va sport to'garaklari, jumladan, ingliz tili to'garagi mavjud, — deydi maktab direktori. — 9-«A» sinf o'quvchisi Nilufar Ibdullayeva. 8-«A» sinf o'quvchisi Muzaffar Zokirjonovlar uch yildan buyon ushbu fan bo'yicha o'tkazilayotgan «Bilimlar bellashuvi»da tumanda g'olib bo'lishib, viloyatda faxrli o'rinni egallab kelishmoqda. 2014-yilda Nilufar bilan Muzaffar «Ingliz tili bilimdonlari» ko'rik-talovining Respublika bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritib, ustozlari Otabek Qodirov hamda Bahora Qozoqovalarning ishonchini oqlashga harakat qilishyapti.

Shuningdek, ushbu maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Sabohat Bahodirova ona tili va adabiyot fanidan tumanda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da qatnashib, 1-o'rinni, viloyatda esa 3-o'rinni egalladi.



Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Furqatjon Tur-sunov murabbiylik qilayotgan «Qo'l to'pi» qizlar jamoasi tumanda mutlaq g'olib bo'lib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Ushbu jamoa viloyatda o'tkazilgan «Umid nihollari» musobaqasida ham ishtirok etib, faxrli 3-o'ringa munosib deb topildi.

Oqbuloq qishlog'idagi o'quvchilarning yutuqlari yanada salmoqli bo'lishiga ishonamiz.

Xonbibi HIMMAT qizi

AXBOROT MAKONI

Jumladan, internet insonlarga fikr almashish, ma'lumotlarni tez va oson olish, xabarlarini hech bir qiyinchiliksiz tarqatish imkonini yaratdi, insonlarning uzog'ini yaqin qildi. Ammo undan foydalanishda g'oyaviy bo'shliq va mafkuraviy immunitetning yetishmasligi oqibatida ko'plab salbiy holatlar kelib chiqmoqda. Eng achinarlisi, din niqobidagi g'arazli kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirish maqsadida internetni uya qilib olib, uning imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanmoqdalar. Ular hech bir qurosiz insoniyat ong-u tafakkurini egallab, o'z yo'rig'iga solishni maqsad qilganlar. Oqibatda hali to'liq ma'naviy dunyo shakllanib ulgurmagan yoshlar internet orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarga aldanib, o'zlari bilmagan holda yovuz kimsalar ta'siriga tushib qolmoqda.

Yurtimizda ana shunday ma'naviy tahdidlar va g'oyaviy xurujlarning o'ldini olish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar uzluksiz ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlarimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish maqsadida, ta'lim muassasalarida ma'naviyat soatlari tashkil etilgan. Unda mamlakatimizdagi barqarorlik, taraqqiyot, tinchlikni qadriga yetish, yoshlarimizning dunyoqarashini yanada kengaytirish maqsadida respublikamizning taniqli olimlari, davlat arboblari, fan va ta'lim fidoyilari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Maftuna ABDUMO'MINOVA, Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi

Hozirgi kunda insoniyat uchun eng katta axborotlar makoni internet ijtimoiy tarmog'idir. Uning kashf etilishi insoniyat hayotida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Dalada ekinlarga suv tarab yurgan No'monjon akaning qo'l telefoni jiringladi:
- Allo, No'monjon aka, men Riordan telefon qilyapman. Nozimaxonning ustoziman. Qizimiz jahon rekordini yangilab, oltin medal sohibi bo'ldi. G'alaba muborak bo'lsin!
Ayni damda No'monjon aka bilan Mayram opaning quvonchini so'z bilan ifodalab bo'lmasdi.

YURT SHARAFINI HIMOYA QILIB...

No'monjon aka qo'li gul hunarmand. Uzoq yillar Chust shahridagi Milliy pichoqlar zavodida mehnat qilgan ustaning qo'lida sharqona uslubdagi minglab pichoqlar sayqal topgan. Farzandlarini ham mehnatga, hunar egallashga o'rgatgan. Yoshligida sport bilan shug'ullanishga imkoni bo'lmaganidan doim o'kinib yurardi.

Istiqlol tufayli ustaning orzulari ushaldi. Birin-кетин voyaga yetayotgan farzandlari sportning yengil va og'ir atletika turlari bilan shug'ullana boshladilar. Akasiga qiziqib, yadro uloqtirish mashg'ulotiga qatnay boshlagan Nozimaxonning qarori oiladagilarni birday quvontirdi. Dastlab, shahardagi 9-, keyin 3-umumta'lim maktabida saboqni davom ettirib, tajribali murabbiy Ravshan Hakimov rahbarligida sport mashg'ulotlariga zo'r berdi. Albatta, undagi o'ziga bo'lgan ishonch mutaxassislar e'tiboridan chetda qolmadi. Ustozlar tavsiyasiga ko'ra 7-sinfdan so'ng o'qishni Respublika olimpiya xazinalari kollejida davom ettirdi. Avvalida yadro uloqtirish bilan sportga kirib kelgan Nozimaxon



N. SULTONOV olgan surat

o'z iqtidorini nayza uloqtirish kabi yo'nalishda ham sinab ko'rishga qaror qildi. Kolledan keyingi jismoniy tarbiya institutidagi tahsil, Sardor Abduxolliqov singari malakali ustozlar rahbarligida olib borilgan tinimsiz mashg'ulotlar o'z samarasini bera boshladi. Turli musobaqalarda g'oliblar safidan joy olib kelgan Nozimaxon Qayumova 2015-yilda O'zbekiston chempioni degan sharaffi nomga sazovor bo'ldi. O'sha yilning fevral oyida Dubayda, mart oyida Xitoyda bo'lib

o'tgan nufuzli xalqaro musobaqalardagi eng yuqori ko'rsatkichi unga Braziliyada bo'lib o'tadigan paralimpiya o'yinlariga yo'llanma berdi.

Nihoyat, XV paralimpiya o'yinlarida Nozimaxon yurtimiz sharafigini himoya qilish uchun maydonga chiqdi. O'sha lahzalarda ham yurtimiz ustozlaridan olgan o'g'itlari, bor mahoratini ishga solib, Ozarbayjon va ispaniyalik raqibalarini dog'da qoldirdi. To'maris avlodining qo'lidan chiqqan nayza ko'kda yaltiraganicha parvoz etib, yerga sanchildi. O'yingoh tomoshabinlarning hayqirig'idan larzaga kelgandek bo'ldi. Musobaqani diqqat bilan kuzatib borayotgan hakamlar ham bir lahza turib qoldilar. Natija - 44 metr-u 58 sm!!! Dunyo rekordi yangilandi.

Uchrashuvimiz chog'i Nozimaxonning musobaqalar payti ko'nglidan nimalar kechganini so'radim. Hamsuhbatim bir zum o'ylanib qoldi. Nazarimda, o'sha hayajonli damlarni bir-bir xayolidan o'tkazgan bo'ldi.

Bunday pallalarda Vatan sharafigidan boshqa hech narsa ko'z oldingizga kelmaydi. «Xonimlar va janoblar! O'zbekiston madhiyasi yangramoqda...», degan so'zlarni eshitganingda, allaqanday shirin tuyg'u butun vujudingni chulg'ab oladi.

Ha, to'rt yillikning eng nufuzli musobaqalarini o'zbekistonlik millionlab tomoshabinlar ko'zda sevinch yoshlari bilan kuzatdilar. Bizga bu munis lahzalarni ajoyib sportchilarmiz tuhfa etishdi. Navbatdagi bellashuvlarda esa ular safi yanada kengayadi.

Yusuf ABDULLAYEV

Risolat Botirova poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabining 5-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Qizchanning orzulari, qiziqishlari bir olam. Hali biserdan turli taqinchoqlar yasab dugonalariga taqdim etsa, hali maktabidagi raqs va xorijiy til to'garagiga qatnaydi.

G'ayrati ichiga sig'maydigan Risolat chaqqon, epchilligi tufayli sportning gimnastika turi bilan ham shug'ullanadi. Dugonalarini Saodat, Omina, Fotima va Hafizalar unga havas bilan qarashadi.

Yaqinda u gimnastika bo'yi

asarlarini o'qishdan zavq oladi. Rasm chizish, tikish-bichish ishlariga ham anchagina uquvi bor. Xullas, tinib-tinchimas bu o'quvchi ustoz Mastura Isroilovadan qiz bola uchun zarur bo'lgan muomala madaniyatini ham-



USTOZGA HAVAS

cha o'tkazilgan maktablararo musobaqada sovrindorlar safidan o'rin oldi.

Qolaversa, Risolat adabiyot ixlosmandi. Muhammad Yusuf she'rlarini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Anvar Obidjon, Xudoyberdi To'xtaboyevning

da pazandachilik sirlarini ham o'rganmoqda.

- Biz ustozimizdagi sabrtoqat, o'quvchilarga bo'lgan cheksiz mehrni qadrlaymiz. Ular doimo bir-birimiz bilan ahil-inoq bo'lishga chaqiradilar. Kelajakda sizlarni buyuk ish-

lar kutmoqda. Ammo qiz bola uchun eng zaruri - bu shirin kalom, deydlar. Katta singlim Soliha 3-sinfda o'qiydi, kichigi hozircha 2 oylik jajji qizaloq. Onajonimga ham uy ishlarida yaqindan ko'makchiman, - deydi Risolat.

Bir so'z bilan aytganda, Risolat Botirova buva-buvijonisi orzu qilganlaridek oqila, chevar, mehnatsevar qiz bo'lishga harakat qilmoqda. Zero, har bir farzand yutuqlaridan, avvalo, uning yaqinlari faxrlanadi.

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

LESSON 108

Grammar corner

AUXILIARY VERB «TO BE» («To be» yordamchi fe'li)

«To be» yordamchi fe'lining mustaqil ma'nosi bo'lmaydi, ma'noni u bilan birga kelgan asosiy fe'l beradi. U zamoni, shaxsni, sonni, nisbatni va boshqalarni ifodalashda ishlatiladi.

«To be» – «bo'lmoq» deb tarjima qilinadi.

I am

He
She
It

We
You
They

is

are

e.g. I am a pupil.
She is a doctor.

Agar gap inkor shaklida bo'lsa, «to be» yordamchi fe'lidan so'ng «not» inkor yuklamasi yordamchi fe'lidan so'ng qo'yiladi.

e.g. We are not students.
They are not writers.

So'roq gap yasash uchun esa «to be» yordamchi fe'li egadan oldinga o'tkaziladi.

e.g. Is she a teacher?
Are you a pilot?



PROFESSIONS (Kasblar)

- A teacher [ti:tʃ] – o'qituvchi
- A pupil [pju:pl] – o'quvchi
- A director [di'rektə] – rahbar
- A secretary [sekrətri] – kotiba
- A cook [kuk] – oshpaz
- A charwoman [tʃɑ:wu mən] – farrosh
- An engineer [endʒi'nɪə] – muhandis
- A doctor [dɔktə] – shifokor
- A nurse [nɜ:s] – hamshira
- A driver [draivə] – haydovchi
- A librarian [laɪbrɛriən] – kutubxonachi
- A farmer [fɑ:mə] – fermer
- A tailor [teɪlə] – tikuvchi
- A gardener [gɑ:dnə] – bog'bon
- A journalist [dʒɜ:nəlist] – jurnalist
- A pilot [paɪlət] – uchuvchi
- A writer [raɪtə] – yozuvchi
- A poet [pəʊt] – shoir
- A translator [trænsleɪtə] – tarjimon
- A security guard [sɪ'kjʊərɪtɪ gɑ:d] – qorovul
- A singer [sɪŋə] – qo'shiqchi
- An actor [æktə] – aktyor
- An actress [æktɪs] – aktrisa
- A welder [weldə] – payvandlovchi

Homework: Learn by heart all new words and make the sentences in auxiliary verbs with professions. Send us your sentences and we'll publish the best ones.

Your teacher DINORA

«HOUSE OF BEES» («Asalarilar ini»)

Put the letters to the right order and make words.

Letters: r, s, e, d, i, b, a, v, e, r, d, s, p, t, i, v, a, c, e, r, i, d, a, f, a, f, e, c, t, a, f, j, u, s, t, a, d.

Words: Dipser, Tivace, Ridafa, Baverd, Fectaf, Justad.

Asalbonu RAJABALIYEVA,

the pupil of school №31 in Bekobod district, Tashkent region


RIGHT PRONUNCIATION (To'g'ri talaffuz)

- Ingliz tilida «r» harfi unilardan keyin kelsa o'qilmaydi: – car, bar.
- «e» harfi so'z oxirida talaffuz etilmaydi: – apple, Pete.
- «gh» harf birikmasi so'z o'rtasida o'qilmaydi: – eight, night.
- «k» harfi so'z boshida «n» dan oldin talaffuz etilmaydi: – knok, knee.

Aziz o'quvchilar, ingliz tilini o'rganishda sizni qiziqtirgan savollaringiz bo'lsa, maktublaringizni kutamiz.

NUMBERS IN ENGLISH

- 10 – ten [ten]
- 20 – twenty [twenti]
- 30 – thirty [θɜ:ti]
- 40 – forty [fɔ:ti]
- 50 – fifty [fɪftɪ]
- 60 – sixty [sɪksti]
- 70 – seventy [seventi]
- 80 – eighty [eɪti]
- 90 – ninety [naɪntɪ]
- 100 – one hundred [wʌn ˈhʌndrəd]
- 200 – two hundred [tu: ˈhʌndrəd]
- 300 – three hundred [θri: ˈhʌndrəd]
- 400 – four hundred [fɔ: ˈhʌndrəd]
- 900 – nine hundred [naɪn ˈhʌndrəd]
- 1000 – one thousand [wʌn θaʊz(ə)nd]
- 1100 – one thousand one hundred [wʌn θaʊz(ə)nd wʌn ˈhʌndrəd]
- 2000 – two thousand [tu: θaʊz(ə)nd]
- 2016 – two thousand sixteen [tu: θaʊz(ə)nd sɪksti:n]



Continuation

Painter: YOQUBBEK

Dono AHMEDOVA

SYNONYMS ARE OUR WORD WEALTH (Sinonimlar so'z boyligimiz)

Quyidagi so'zlarning o'zbek tilidagi ma'nodoshlarini yodda saqlagan holda ingliz tilida mavjud variantlarini topishga harakat qiling.

Payt, zamon, fursat, mahal, chog', kez, mavrid, palla, muddat, dam, on, lahza.



Jasur, dovyurak, mard, qo'rqmas.



Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

(Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Chollar, bolalar ham jim bo'lib qolishdi. O'sha ochko'z bo'ri menga ham hamla qilib qolishi mumkin, deb qo'rqa boshladim.

Bordi-yu, Sabriniso opam

o'rmda oyijonim bo'lsa-

chi, deb o'ylab

qo'rquvim yana

o'n chandon

o'shgan-

day bo'ldi.

O'rnim-

dan turib

chiqay

desam,

gapning

qizig'i endi

boshlanganga

o'xshaydi. Har xil

ayanchli voqealar

aytishayпти.

Qashqarliklar tog'

ichidagi ingichka

yo'lakdan tushib ke-

ladigan bo'riga qopqon

qo'yishgan ekan, o'sha

bo'ringning oyog'i ilinibdi, qol-

gan uch oyog'i bilan shaqir-shuqur sudralib yana

toqqa qocha boshlabdi. Qo'llarida cho'qmor,

o'tkir boltalari bo'lishiga qaramay, yigitlar bo'ri-

ning ortidan borishga qo'rqishibdi.

- Nazar boboning oilasini Xudo saqlabdi, -

yana boshqa bir kishi gap boshlab qoldi. - Ha,

ba'zan ishing o'ngidan kelsa, bunga ham taqdir

sababchi bo'ladi. Taqdiringda bo'lsa, o'limdan

qutulib qolish hech gapmas. Chol-u kampir

pishillashib shiringina uyquga ketishgan, tun yar-

midan og'ib qolgan ekan. Molxonadan buzoq-

chaning qisqa-qisqa ingrab ma'ragani eshitilibdi.

Sigiri ham bir bor g'alati ovoz chiqaribdi. Chol

buzoqcham o'ralib qolgan, deb tashqariga chiq-

sa, molxonaning eshigi lang ochiq emish, jinchi-

liklir kiritibdi:

- Kesakvoy, kel, yaxshisi, kim

kuchli ekanligini anavi daraxt

bobodan so'rab ko'ramiz.

Ular bir zumda uni uyg'otib,

kesak shosha-pisha shamolni

ham vaziyatdan ogoh etibdi.

Shamol esa biroz shoshayot-

ganligi uchun ularga bir masla-

hat beribdi:

- Buni, yaxshisi,

donishmand daryodan

so'rab ko'rgan ma'qul.

Chunki u bu vodiydagi

barcha jumboqlarga

to'g'ri yechim topa ola-

digan yagona topqir-

dir.

Kesak tosh istama-

sa-da, uni daryo bo'yi-

ga boshlab boribdi va

vaziyatni unga tushun-

tiribdi. Donishmand

daryo uzoq o'vga tol-

gach, oxiri so'z qotibdi:

- Qani, ikkingiz ham men

tomonga sakranglar-chi.

Takabbur kesakdan tezroq

qutulish niyatida tosh birinchi

bo'lib o'zini suvga otibdi. Va

bus-butunligicha daryo tubiga

yetib boribdi. Kesak esa suvga

tushishning natijasi o'zi uchun

qanday bo'lishini oldindan

anglab turgan bo'lsa-da, qay-

sarligi va manmanligi sabab

daryoga sakrabdi. Ammo suv-

ning yarmiga ham yetib bormay

ivy boshlabdi. Bora-bora yo'q

bo'lib ketgan kesakdan oxir-oqi-

bat suv yuzasida balqib turgan

loyqa pufakchalar qolibdi.

Farhod ESHMO'MINOV



TAGOB QISHLOQ
ERTAKLARI

roqni yoqib ichkariga kiray-chi, deb o'ylabdi chol. Shu payt bir dahshatli maxluq tashlanib qolibdi. Yelkasiga og'iz ham solibdi. Cholning baxti o'ngidan kelganini qarang, qo'lida yonib turgan jinchiroq yerga tushib, moyi to'kilib, lov etib alanga ko'tarilibdi. Yirtqichlar olovdan qo'rqadi. Mana shu olov cholni o'limdan qutqaribdi. Voy-voylashib kampiri-yu kelinlari yugurib chiqishibdi. Och bo'ri sigirga tashlangan chog'i yelka, oyog'ining ayrim joylarida go'shti yo'q. Bechora ona sigir bolamni qutqaraman, deb rosa olishgan. Olishayotganda qattiq ma'rab cholni uyg'otib yuborgan ekan. O'zi hayvon zoti ham odamga o'xshaydi. Bolasi uchun olishganda eng yirtqich maxluqni ham yengadi.

- To'g'ri, - gap navbatini o'ziga oldi bobolardan biri, - nafaqat hayvonlar, qushlar ham, jamiki jonzotlar bolasini himoya qilayotganda Olohdan kuch berarkan. Esimda turibdi. Musicha yangi bola ochgandi. Tom tomondan bir ilon vishillab kelib, palaponlarga og'iz solmoqchi bo'ldi. Ey, o'g'illarim nar va moda musicha ilonga shunday tashlandilarki, chaqchayib turgan maxluqning ko'zlarini o'yib oldilar... Ha, har bir zot o'z naslini davom ettirish uchun jonini fido qiladi. O'sha brigadir aytganiday Sabriniso opa o'z jonini fido qilgan.

Aziz bolajonlar, sevimli adibingizning «Tagob qishloq ertaklari» qissasining davomini kitob holida o'qiydiz.

kesak shosha-pisha shamolni ham vaziyatdan ogoh etibdi. Shamol esa biroz shoshayotganligi uchun ularga bir maslahat beribdi:

- Buni, yaxshisi, donishmand daryodan so'rab ko'rgan ma'qul. Chunki u bu vodiydagi barcha jumboqlarga to'g'ri yechim topa oladigan yagona topqiridir.

Kesak tosh istamasa-da, uni daryo bo'yi-ga boshlab boribdi va vaziyatni unga tushuntiribdi. Donishmand daryo uzoq o'vga tol-

gach, oxiri so'z qotibdi: - Qani, ikkingiz ham men tomonga sakranglar-chi. Takabbur kesakdan tezroq qutulish niyatida tosh birinchi bo'lib o'zini suvga otibdi. Va bus-butunligicha daryo tubiga yetib boribdi. Kesak esa suvga tushishning natijasi o'zi uchun qanday bo'lishini oldindan anglab turgan bo'lsa-da, qaysarligi va manmanligi sabab daryoga sakrabdi. Ammo suvning yarmiga ham yetib bormay ivy boshlabdi. Bora-bora yo'q bo'lib ketgan kesakdan oxir-oqibat suv yuzasida balqib turgan loyqa pufakchalar qolibdi.

maqsadlarini aytishibdi. Daraxt qurib borayotgan shoxlari bilan ko'zini bir-ikki ishqalab olgach, javob berishga og'iz juftlabdi. Ammo bunga qadar kesakning sabri yetmabdi.

- Buning nimasini o'ylayapsiz, hayronman. Axir odamlar mendan boshpana qurishadi. Istahsa, meni maydalab ekin ekishi ham mumkin. Shuning uchun foydali, aniqrog'i, toshdan kuchli ekanligim kundek ravshan bo'lib turibdi-ku.

Bobodaraxt maqtanchoq kesakning ters gaplariga nima javob qilishni bilolmay turganda, ularning yonidan o'ynoqi shamol o'tib qolibdi. Hovliqima



Ochil TOHIR

ODOBLI BOLA

Bobojonim, bobojon, Sizni yaxshi ko'raman. Yoningizda doim men, Odob saqlab turaman.

Chaqirsangiz, labbay, deb, Qoshingizga yelaman. Shirin konfetlar berib, Erkalaysiz, bilaman.

Buyursangiz biron ish, Men yalqovlik qilmayman. Og'rir boshim yoki tish, Sababin hech bilmayman.



OYPOSHSHA

- Oyi, - dedi Oyposhsha, - Ushladim, mana, pashsha. Undan fil yasab bering, Qilmoqchiman tomosha.

- Sendan aylanay o'zim, Bu mumkin emas, qizim. Buni eplolmas odam, Senga aytay chin so'zim.

- Xo'sh, unda nega dadam, Tushunmayman sira ham, Pashshadan fil yasaydi, Deydilar sizni har dam?!

ARAZCHI QIZ



Buvijonim har doim, Boqib menga muloyim. Ohista sochim silab, Derlar meni erkalab:

- Sen asal-novvotimsan, Ko'nglimga quvvatimsan. Osmonda oy, yulduzim, Oppoq, yorug' kunduzim. Bog'imda gul-g'unchamsan, Mening shirmoy kulchamsan.

- Rostmi, - deb buvim so'zi, Oldimga qo'yib ko'zgu. Uzoq boqib turdim men, U yoq-bu yoq yurdim men. Undan uzmay ko'zimni, Kuzatdim men o'zimni. Buvim sanab birma-bir, Aytganin topmay axir. O'pkalab men oynadan, Chiqib ketdim xonadan.



KESAK VA TOSH
(Ertak)

Kunlarning birida eski bino devoridan nuragan bir bo'lak kesak yerga tushibdi. Paxsa devor orasida yillar davomida yotgan kesak quyosh nuridan avvaliga ko'zlarini ocholmabdi. Biroz vaqtdan so'ng, qisq ko'zlari bilan yon-atrofini kuzata boshlabdi. Shunda sal narida qimir etmay turgan, jussasi tuxumsimon narsaga ko'zi tushibdi. So'ng dumalagancha uning yoniga boribdi va so'rabdi:

- Hoy, sen kimsan?!

- Men... Men toshman, - deb javob beribdi u.

- Mayli, nima bo'lsang, bo'laver. Lekin bilib qo'y, men sendan kuchliroqman, tushundingmi? - maqtanishga o'tibdi kesak.

- E, qanaqasiga? Axir hali bir-birimizni yaxshi bilmaymiz-ku, - hayron bo'libdi tosh.

- Nima deganing bu? Ko'rmayapsanmi, men kesakman. Odamlarga sendan ko'ra men kerakman. Shunday ekan, men kuchliman, aniqrog'i, foydaliroqman.

Shunda toshning ko'zi sal narida boshini yarim uyqu aralash egib turgan keksa daraxtga tushibdi va kesakka

maqsadlarini aytishibdi. Daraxt qurib borayotgan shoxlari bilan ko'zini bir-ikki ishqalab olgach, javob berishga og'iz juftlabdi. Ammo bunga qadar kesakning sabri yetmabdi.

- Buning nimasini o'ylayapsiz, hayronman. Axir odamlar mendan boshpana qurishadi. Istahsa, meni maydalab ekin ekishi ham mumkin. Shuning uchun foydali, aniqrog'i, toshdan kuchli ekanligim kundek ravshan bo'lib turibdi-ku.

Bobodaraxt maqtanchoq kesakning ters gaplariga nima javob qilishni bilolmay turganda, ularning yonidan o'ynoqi shamol o'tib qolibdi. Hovliqima

DIYORBЕК - ENG YAXSHI HUJUMCHI

Namanganlik tengdoshingiz Diyorbek Bahromjonov yurtimizning yosh va umidli futbolchilaridan biri. Millionlar o'yiniga bo'lgan qiziqish sabab, u mana bir necha yildirki, Namanganning «Navbahor» jamoasi qoshida ochilgan futbol maktabiga qatnaydi.



Diyorbek oynaydi jahon orqali O'zbekiston milliy terma jamoasining o'yinlarini qoldirmay kuza-tib boradi. Eng sevimli futbolchisi esa Odil Ahmedovdir. Iqtidorli tengdoshingiz hozirda malakali murabbiylar qo'l ostida millionlar o'yini sir-asror-

larini puxta o'rganmoqda. Quvonarlisi, Diyorbek yaqinda «Navbahor-Umid» nomli jamoasi bilan birga, viloyatda 2005-yilda tug'ilgan bolalar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida munosib ishtirok etib, yakunda g'oliblikni qo'lga kiritdi. E'tiborli jihati, u turnirda «Eng yaxshi hujumchi» nominatsiyasida tengsiz deb topildi. Musobaqada respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan jamoalar ishtirok etib, chempionlik uchun o'zaro bahs olib bordilar. Keskin va murosasiz tarzda o'tgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, finalga Namanganning «Navbahor - Umid» va

Toshkent terma jamoalari yo'l oldi. Hal qiluvchi uchrashuvda vodiylik yosh charmtop ustalari raqiblarini kichik 2:1 hisobida taslim etib, O'zbekiston chempioni degan sharaflini nomga sazovor bo'ldi. Namanganliklardan gollarga Muhammad-sodiq Abdullayev va Diyorbek Bahromjonovlar mualliflik qilgan bo'lsa, poytaxtliklarning yagona to'pini Laziz Hakimov o'z hisobiga yozib qo'ydi. — Musobaqada juda yaxshi ishtirok etdik, ko'plab do'stlar orttirdik. Ayniqsa, Toshkentdan kelgan tengdoshlarimiz bilan bo'lgan o'yin menda katta taas-

YANGI SPORT ZALI

Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi 17-umumta'lim maktabining yangi sport zali foydalanishga topshirildi.

Ushbu bino Mustaqilligimizning 25 yilligiga ajoyib sovg'a bo'ldi.

Respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari evaziga bunyod etilgan mazkur maskan zarur sport anjomlari bilan to'liq ta'minlangan.

Bu yerda bir vaqtning o'zida 200 nafardan ziyod bola sportning 10 dan ortiq turi bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega.

Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri

surot qoldirdi. Kelajakda Odil Ahmedov, Sardor Rashidov, Server Jeparov kabi mohir futbolchi bo'lib, jahon maydonlarida ona Vatanim sharaflini munosib himoya qilmoqchiman, — deydi Diyorbek.

Turnir yakunlangach, g'olib va sovrindorlarga tashkilotchilar tomonidan diplom va medallar tan-tanali ravishda topshirildi.

Sa'dullo TURSINOV

ESHKAK CHILARIMIZ SHOHSUPADA

Samarqand eshkak eshish kanalida o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Osiyo ochiq kubogi va parakano bo'yicha Osiyo chempionati musobaqalari yakunlandi.



Dunyoning 14 davlatidan kelgan 200 dan ortiq sportchi g'oliblik uchun bahslashdi. Kattalar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvlarda terma jamoamiz a'zolari 11 ta oltin, 10 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. O'smirlar o'rtasidagi bellashuvlarda yurtimiz sharaflini himoya qilgan sportchilarimiz 10 ta oltin, 14 ta kumush va bronza medalini bilan taqdirlandi. Eng quvonarlisi, parakano bo'yicha birinchi Osiyo chempionatida mam-lakatimiz sportchilari 2 ta oltin, 4 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritib, eng yaxshi natijani qayd etdi.

Shavkat KAZAKBAYEV



KANADADAN KUMUSH KELDI

Yaqinda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqadagi hamyurtimizning g'alabasi ko'ksimizni g'ururga to'ldirdi. Kanadaning Perfon shahrida bo'lib o'tgan muz ustida figurali uchish har qanday kishini o'ziga maftun etadi.

Nafis sport turlaridan biri sanaladigan muz ustida figurali uchish har qanday kishini o'ziga maftun etadi.

Ulug'bek SAIDOV

VELOPOYGACHILAR BELLASHDI

Farg'onada bo'lib o'tgan «Kamolot»-TUR IX yoshlar velomarafonining viloyat bosqichida 300 dan ziyod havaskor velosportchi qatnashdi.

9-14 yosh toifasidagi o'smirlar bahslarida Quva tumanidagi 50-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mirjamol Ro'zaliyev birinchilikni egalladi. Toshloq tumani vakili Elyor Nishonov esa 15-17 yoshlilar orasida tengsizligini isbotladi. 18-30 yoshli velopoygachilar o'rtasida Quva qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'quvchisi Javohir Jamoliddinov g'oliblikni qo'lga kiritdi. Endi g'oliblar musobaqaning Respublika bosqichida o'zaro bellashadi.



Sh. G'ULOMOV

KATTA TANAFFUS

Bolajonlar, mana, yangi o'quv yilining ilk oyi ortda qoldi. O'tgan vaqt mobaynida kundalik daftaringizga bir nechta a'lo baholar tushgan bo'lsa kerak-a? Bundan ota-onangiz, ustozlaringiz ham mamnun, shunday emasmi? Axir chorakni faqat a'lo baho va a'lo kayfiyat bilan boshlash kerak. Ana endi «Katta tanaffus»da gurunglashmoqchi bo'lgan tengdoshlaringizni-da davramizga chorlaymiz.



«Quvnoq jonivorlar»

XARITA

Ajoyib tasvirlangan, Bizning yashash joyimiz. Undan bilish ham mumkin, Qay joyda turishimiz.

Xaritadir makoni, Tog', daryo, ko'l, cho'llarning. Chiziqlarda joylashgan, Kichik aksi yo'llarning.



TOPISHMOQLAR

O'zi semiz, qovoqday, Qalpog'i bor, tovoqday...

Ikki ajib tayog'im, Zo'rdir ularning ishi. Birining hovuzi bor, Birining esa - tishi...



«Natyurmort»



Rayhona UBAYDULLAYEVA, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garagi a'zosi

«MAUGLI»NI KIM YOZGAN?



Sarlavhani o'qib, qiziqib qoldingiz, shundaymi? Aziz o'quvchilar, ushbu asar asosida yaratilgan badiiy film va multfilmlarni miriqib tomosha qilishingizga shak-shubha yo'q. Bugun sizlarga uning muallifi haqida batafsil ma'lumot beramiz.

«Maugli» asari ingliz yozuvchisi, shoir va novellanavisti Jozef Redyard Kipling (1865–1936 y.) qalamiga mansub. U yorqin fantaziyasi, kuza-tuvchanligi, yetuk tasavvurga egaligi, misli ko'ril-magan iqtidor egasi hamda mohir hikoyanavisligi uchun adabiyot yo'nalishida inglizlardan birinchi bo'lib Nobel mukofotiga 1907-yilda sazovor bo'lgan.

Redyard Kipling 1865-yil 30-dekabrda Hindistonning Bombey shahrida tug'ilgan.

Kipling hayotining ilk yillari juda baxtli kechgan. Hindiy enagasi kichiktoy Redyardga hind tilida so'zlashishni o'rgatgan, hayvonlar haqida ertaklar aytib bergan.

Besh yoshga to'lganida uni opasi bilan birga o'qish uchun Angliyaga jo'natishadi. 12 yoshida esa ota-onasi o'g'illarini ta'lim olish uchun Devon bilim yurtiga joylashtirishdi. Bu ta'lim maskani talabalarga nufuzli harbiy akademiyaga o'qishga kirish imtiyozini berardi. O'quv dargohining direktori Kormell Prays otasining do'sti edi, aynan shu odam o'spirin Kiplingda adabiyotga, ijod qilishga muhabbat uyg'ota oldi. O'zi ishlaydigan gazeta-da uning reportajlaridan tashqari, ertak-hikoyalari ham bosilardi.

80-yillar o'rtalarida Kipling Allohobodning «Kashfiyotchi» gazetasi muxbiri sifatida bir necha bor Osiyo va AQSHga safar qildi. O'sha yillar unga yozuvchi sifatida shakllanish, ijodiy o'sish va mashhurlik olib keldi. 1889-yilda Kipling Hindistondan Angliyaga – Birma, Xitoy, Yaponiya, AQSH orqali uzoq muddatli safarga chiqdi.

Angliyada Kipling amerikalik noshirning singlisi Karolina Beylstr ismli qiz bilan oila qurdi va ijod qilishda davom etdi. So'ng oilasi bilan AQSHga jo'nab ketdi. Kipling u yerda bolalar uchun ertak-hikoyalar yoza boshladi. 1894–1895-yillarda esa dunyoga mashhur asari «Maugli» va «Maugli – 2» kitoblari bosmadan chiqdi.

Kipling adabiy faoliyatini to umrining oxiriga qadar davom ettirdi.

Dilorm HOTAMOVA tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

KROSSVORD



- Vodorodni kim kashf etgan?
- Eng kuchli metall atomi.
- Mendeleyev oldindan kashf etgan element.
- «Molekulyar» tushunchasini fanga kiritgan olim.
- Ushbu formula-nomini toping: Ca3(PO4)2.
- Qachon normal konsentratsiya bilan molyar konsentratsiya teng bo'ladi?
- Kimyo so'zi kimning nomidan olingan?
- Asosiy guruh elementlari nima deb ataladi?
- Allotropiya hodisasining qadimgi nomi...
- Kimyo so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- AlF3, 3 NaF, NA3, ALF3 formula-sining nomi.
- (NH4)2SO4, FeSO4, 6 H2O formula qanday tuz?
- Na2Bv2O7, 10H2O qanday mineral?
- Ishqoriy metallarning eng yengilli qaysi?
- Ximiya so'zining ma'nosi?

Bonu QO'YLIBOYEVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

«Katta tanaffus»ga qo'ng'iroqni OZODA opangiz chaldi

Iye, qo'ng'iroq ovozi? Siz bilan suhbatlashganimizdan bag'oyat mamnumiz. Ammo darsga kechikmaslik uchun darrov sinfxonaga shoshiling. Aks holda, ustozingiz ranjib qoladi. Yana siz bilan «Katta tanaffus»da ko'rishguncha xayr!

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir Shavkat KAZAKBAYEV Rassom Feruzbek KAMOL o'g'li Sahifalovchi-dizayner Shaxobiddin MAXMADIYEV Fotomuxbir Zubayda MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 25601 Buyurtma - S 7192

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08